

"Rauf Parfi soʻz orqali ozodlikni yaratgan shoir"

**Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
Ibodova Mohidil Ilgʻorovna**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodida soʻz va ozodlik masalasi badiiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shoirning “soʻz” tushunchasi nafaqat poetik ifoda vositasi, balki ruhiy va maʼnaviy ozodlikning ramzi sifatida talqin etiladi. Rauf Parfi soʻz orqali insonning ichki erkinligini, tafakkur mustaqilligini va ruhiy uygʻonishini ifodalagan. Uning sheʼriyatida soʻz ijtimoiy chegaralarni yorib oʻtuvchi, insonni oʻz “men”iga qaytaruvchi kuch sifatida gavdalanadi. Maqolada shoirning ramziy obrazlari, metaforalari, falsafiy izlanishlari va erkinlik gʻoyasining poetik koʻrinishlari tahlil qilinadi.

KALIT SOʻZLAR: Rauf Parfi, soʻz, ozodlik, poetik tafakkur, badiiy ifoda, falsafiy lirika, ruhiy uygʻonish, ijodiy erkinlik.

Sheʼriyat — bu soʻzning emas, tuygʻuning tili. U inson ruhining eng sokin, ammo eng kuchli hayqirigʻidir. Sheʼrni yozish uchun aql emas, yurak kerak, chunki har bir misra yurakdan tugʻiladi. Sheʼriyatda vaqt yoʻq — u kecha, bugun va ertani bir zumda birlashtiradi. Shoir soʻz bilan emas, his bilan yashaydi, shuning uchun uning sukunati ham sheʼrday jaranglaydi. Har bir sheʼr — hayotning boshqa koʻz bilan koʻrilgan manzarasidir. Rauf Parfi oʻzbek sheʼriyatining eng serqirra va chuqur ijodkorlaridan biridir. Uning nomi nafaqat adabiyotimiz tarixida balki millatning maʼnaviy uygʻonishida ham alohida oʻrin egallaydi. Shoirning satrlari oʻz davrida koʻpchilik uchun umid chirogʻi, baʼzida esa qoʻrquv soyasida aytilmagan haqiqatning tovushi boʻldi.

Parfi ijodida eng asosiy gʻoya – bu erkinlik va ozodlikdir. U sheʼriyatni nafaqat estetik goʻzallik yaratish vositasi, balki milliy ruhni tiklovchi kuch sifatida koʻrdi. Wuning uchun ham uning satrlari oʻquvchini befarq qoldirmaydi, balki qalbida uygʻotadi, titratadi, oʻylashga majbur qiladi. Rauf Parfi uchun sheʼr – oddiy badiiy sanʼat emas, balki qurol edi. Shoir oʻz asarlarida Vatan dardi, xalqning iztiroblari, muhabbat va insoniy mehr-oqibatni juda samimiy ifodaladi.

Rauf Parfi (asl ism-sharifi Rauf To‘xtamurod o‘gli Parfiyev) talabalik paytidayoq she’rlari matbuotda chiqa boshlagan. Rauf Parfi yozgan she’rlar boshqalarnikidan biroz o‘zgacha edi – unda xalq dardi, erkinlik, milliy g‘urur va muhabbat sezilib turardi. Uning ilk she’riy kitobi “Shamolni tingla” nomi bilan 1970-yillarda chiqqan. Keyinchalik u “Sukunat”, “Hasrat”, “Xotirot”, “O‘zbekning yuragi” kabi ko‘plab asarlar yozdi. Ularning barchasida inson qalbi, Vatan dardi va ozodlik orzusi aks etadi. Rauf Parfi oddiygina shoir emas edi, u millatning uyg‘onishiga, mustaqillik uchun ham katta hissa qo‘shdi. Uning ayrim she’rlari Sovet davrida chop etilmay qolgan, lekin mustaqillikdan keyin ularning qadri yana-da oshdi. Shoir umrining oxirigacha xalq dardini kuylab yashadi. Rauf Parfini faqat shoir sifatida emas, balki millatning yuragini so‘z orqali ifodalagan ijodkor sifatida yodimizda qoladi. Rauf Parfining " Munojot" nomli she’riga tahlil:

1-bayt

«Bag‘rimda g‘ildirar temirchil hayot,»

– Shoir hayotni temirchiga o‘xshatmoqda. Temirchi temirni qattiq zarbalar bilan toblaydi. Bu hayot ham woirning ko‘nglini zarb qilayotganini, og‘ir sinovlardan o‘tkazayotganini bildiradi. "Бағримда" so‘zi ichki azob, ruhiy kuyish, dardni anglatadi.

«Izg‘itqi chivg‘inda chidamdir boshim.»

– Bu yerda hayotning qiyinchiliklari "chivg‘in" (qiy-chuv, shovqin, tashvishlar) tarzida tasvirlangan. Shoirning «chidamdir boshim» deyiwi esa: boshim sabrga o‘rganib ketgan, hamma azobga chidashga majburman, degan ma’noni beradi.

2-bayt

«Faqat sen uyquchan tomirni uyg‘ot,»

– Shoir bu yerda Quyoshga murojaat qilmoqda. «Uyquchan tumor» — bu hayotiy kuch manbai, insonning yashash ruhi. Demak, shoir Quyoshdan ichki kuchini uyg‘otishini, unga hayot nafasi berishini so‘raydi.

«Qizimning qo‘liga kuch ber, Quyoshim.»

– Bu misra juda samimiy. Shoirning yagona iltijosi — farzandiga kuch berish. Hayot qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, u qizining baxtini o‘ylaydi. Quyosh — hayot, nur, kuch ramzi sifatida tasvirlangan.

3-bayt

«Bag‘rida laxcha cho‘g‘, aylanadi yor,»

– Bu misrada butun dunyo issiqlik, kuch, quvvatga to‘la ekanligi ta’riflanmoqda. "Laxcha cho‘g“ — bu yerning yuragida yonib turgan olov, ya’ni hayotning uzluksiz davom etishini bildiradi.

«Quvonchim, sevinchim, kuyuk Quyoshim.»

– Bu yerda lirika qahramoni o‘zining eng nozik hislarini ochib beradi: quvonchi, sevinchi hamda iztirobli ko‘z yoshlari ham Quyosh bilan bog‘langan. Shoir uchun Quyosh — barcha hislarning bosh manbai.

4-bayt

«Faqat sen qizg‘onma, bir kaft mehr ber»

– Bu yerda Quyoshdan shunchaki bir kaft (kichikgina) mehr so‘ralmoqda. «ҚИЗҒОНМА» deyishi esa, go‘yo hayot mehrini ayab, qiyinchilikni ko‘paytirayotgandek tasavvur qilinmoqda.

«Ilinjim, sig‘inchim— buyuk Quyoshim.»

– Yakunda Quyoshga sig‘inish, undan ilinj qilish ifoda etiladi. U hayot manbai, mehr qo‘rg‘oni sifatida ko‘rsatiladi. Bu satrda mehr, umid va najot iltijosi jamlangan. She’r — munojot waklida yozilgan. Bu shoirning hayotdan shikoyati emas, balki sabr bilan chidashi, ammo birgina so‘rovi — farzandiga kuch berishidir. Quyosh bu yerda: hayot va kuch timsoli, mehr va issiqlik manbai, umid ramzi sifatida gavdalanadi.

She’rning asosiy g‘oyasi: inson qanchalik qiynalmasin, sabr qiladi, biroq farzandining baxti uchun Quyoshdan, hayotdan kuch va mehr tilaydi